

**ISAJON SULTONING KOMPOZITSIYA YARATISH MAHORATI
(“ONA YURT” HIKOYASI MISOLIDA)**

Feruza Gulboyeva

TerDU Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti
yo‘nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7295287>

Annotatsiya. Maqolada Isajon Sultonning hikoyalarda kompozitsiya yaratish mahorati haqida “Ona yurt” hikoyasi asosida so‘z yuritilgan. Hikoyadagi boblarning mazmuniy jihatdan alohida ma‘no anglatayotgani misollar bilan ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Kompozitsiya, hikoya, qism, bob, epilog, qahramon, musiqiy ohang, dialog.

**КОМПОЗИЦИОННЫЕ СПОСОБНОСТИ ИСАДЖОНА СУЛТАНА
(НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА «ОНА ЕР»)**

Аннотация. В статье говорится об умении Исаджона Султо создавать композиции в рассказах по мотивам повести «Родина». На примерах показано, что главы в рассказе имеют рассказы особое содержательное значение.

Ключевые слова: Композиция, рассказ, часть, глава, эпilog, персонаж, музыкальный тон, диалог.

**ISAJON SULTAN'S COMPOSITION SKILLS
(IN THE EXAMPLE OF THE STORY "ONA YER")**

Abstract. The article talks about Isajon Sulto's ability to compose stories based on the story "Motherland". It is shown by examples that the chapters in the story have a special meaning in terms of content.

Key words: Composition, story, part, chapter, epilogue, character, musical tone, dialogue.

KIRISH

Har qanday jism, jarayon, voqea-hodisa bari bir tizim asosida tuzilgan bo‘ladi. Jumladan, badiiy asar ham. Asar tuzilishi qanchalik puxta bo‘lsa, uning o‘qishlilik darajasi, badiiy saviyasi, adabiy umri ham shuncha bo‘ladi. Badiiy asardagi shakl komponentlarini badiiy mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiyaning vazifasi sanaladi. Kompozitsiya asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unurning o‘zi bo‘lmaydi, zero, har bir unsur asar butunligida o‘zining funksiyasiga ega bo‘ladi, muayyan g‘oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Adabiyotshunoslik lug‘atida kompozitsiyaga quyidagicha ta‘rif beriladi:

“Kompozitsiya (lot. Composition – tuzish, biriktirish) – badiiy asar qismlarini yaxlit badiiy niyat (muayyan konsepsiyani shakllantirish va ifodalash, ko‘zlangan g‘oyaviy-estetik ta‘sir) ijrosi uchun eng optimoal holda joylashtirish, badiiy sistema (asar)dagi unsurlarni o‘zaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashiladigan tarzda butunlikka biriktirish.”¹

METOD VA METODOLOGIYA

Yozuvchi uslubida uning kompozitsiya yaratish mahorati alohida o‘rin tutadi, har bir adibning o‘ziga xos kompozitsion yo‘li bo‘ladi. Keyingi yillarda ijodkorlarimiz orasida o‘zining

¹ Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2013. 141-b.

qalami bilan bir qator yutuqlarga erishib, asarlari orqali adabiyot ixlosmandlari qalbidan chuqur joy egallab kelayotgan yozuvchilarimizdan biri – 2010-yilda O‘zbekistonda yilning eng yaxshi romani deb e’tirof etilgan “Boqiy darbadar”, 2012-yilgi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tanlovida nasr yo‘nalishi bo‘yicha g‘olib deb topilgan “Ozod” romanlarining muallifi yozuvchi Isajon Sultonovdir. Uning asarlari g‘oyaviy badiiy xususiyatlari, mavzusining takrorlanmas tarzda ekani bilan adabiyotshunos va munaqqidlar nazariga tushgan. Ta’kidlash joizki, adib yaratgan asarlar tom ma’noda umumbashariy muammolarni aks ettiradi, balki shu jihatdan ham yozuvchi asarlari tezlik bilan shuhrat topgandir.

Ammo yozuvchi yutug‘ini faqatgina bir jihat bilan izohlab bo‘lmaydi, gapimizning avvalida so‘z yuritgan kompozitsiya masalasida Isajon Sultonovning oldiga tushadigan adib kamdan-kam topilsa kerak. “Uning hikoyalarida shamolning esishida ham o‘zgacha bir ma’no mavjuddir”² Uning kompozitsiya yaratish mahorati yuqori darajada. Bir qator yirik asarlari, yutuqlarga erishgan nomdor romanlaridan tashqari uning kichik janrdagi asarlarining kompozitsion tuzilishi ham boshqalarnikiga o‘xshamagan – o‘ziga xos yo‘nalishda ekani bilan ajralib turadi.

Chunonchi, uning “Ona yurt” deb nomlangan hikoyasi o‘zgacha uslubda, g‘oyat ajoyib kompozitsiya asosida, ko‘rkam tasvirlar, inja tuyg‘ilar ila yozilgan. Asar janrining hikoya deb qo‘yilganligi biroz noo‘rindek tuyuladi hikoyani ilk o‘qishdayoq, biroq uning kompozitsion tuzilishiga teran nigoh tashlaganda bu bir sog‘inchli qalb xonishini aks ettirmish hikoya ekani oydinlashadi.

Asar avvalida yozuvchining asardan kitobxonni voqif qilish hamda tushunmovchilikning oldini olibmi bergan kichik izoh bilan yuzlashadi kishi: “Bu hikoya – odamlar, voqealar, hodisalar haqida emas. Bu hikoyaning qahramoni – qishloq. Ha, aynan qishloq.”³ Ilk jumladayoq asarning hikoya qoliplaridan chiqqan hikoya ekanini yozuvchining izohidan bilish mumkin. Chunki biz bilgan, o‘qigan hikoyalar biror bir shaxs yoki qandaydir voqea haqida bo‘lgan doim.

Hikoya bir qarasang, ko‘ngil dardlari bitilgan maktubga, bir qarasang, tug‘ilgan joy haqidagi essegga, bir qarasang yurtdosh do‘stning suhbatiga o‘xshaydi. Yozuvchi qishloqni tirik insondek tasvirlaydi, his tuyg‘ular unga-da begona emasligini ta’kidlaydi. “U nozlanadi, chappar uradi, bag‘rida borini muhayyo qiladi, goho to‘rsayib-xo‘mrayadi, xullas, bir tirik jonzot nimaiki qila olsa, barini u ham qiladi.

TADQIQOT NATIJASI

Avvallari uning o‘z fe’l-atvori, injiqliklari borligini bilmas ekanman, endi o‘ylasam, bir jonlidan sira kam emas – yaslangan bog‘u rog‘lari, o‘ynab oqqan ravon suvlari, bepoyon dalalariyu sinchli uylari bilan allaqachon tilga kirib, menga bir nimalarni so‘zlab ham ulguribdi.”⁴

Asar olti qismdan iborat bo‘lib, yuqoridagi dastlabki qism – kirish qismi edi. Yozuvchi asar kompozitsiyasida bu kabi qismlarga bo‘linishni amalga oshirishdan muayyan maqsadni

² Nosirov A. Istiqlool davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand – 2014. 68-b.

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-ona-yurt-hikoya>

⁴ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-ona-yurt-hikoya>

ko'zlagan. Mazmunan birinchi qismda muallifning hikoya asosiy voqealari bilan tanishtiruvchi aks etgan, xuddi ekspozitsiyadagi kabi.

Ikkinchi qismda esa qishloqning umumiy manzarasi, qahramonning qishloqni barcha belgilari – tabiati, odamlari, ular bilan bog'liq xotiralarni yodga bilan yodga olishi yuz beradi: "Bir mahallar uning bag'ri qaynoq, quyoshi jazirama, suvi kumush, o'zi g'oyat saxiy edi. Yozning issiq, dim kechalarida bedazorlar, ekin yerlari, tut shoxlariyu chang bosgan uzumzorlar uzra yengil shom qo'nganida, uylardan chiqayotgan elas-elas shovur musiqasini xotiramga yozib olgan ekanman."

MUHOKAMA

Asarning uchinchi qismi "O'zining qadrini menga rosmasiga ko'rsatib qo'yganida, endigina aqli to'lishayotgan yigitcha edim." – degan jumla bilan boshlanadi, mana shu qismdan boshlab bu oddiy hikoya emas, balki qalb qo'shig'i ekanligini sezdiradigan musiqiy ohang yuzaga chiqib boshlaydi. Jumlalarining ko'pnuqtalar bilan yakunlanishi, keyingi jumlaning yangi satrdan yozilishi kabilar so'zimizga isbot bo'la oladi. Quyidagi parchaga bir razm solishdayoq buning to'g'ri ekanligini bilish mumkin:

"U ham xayolimda ana shunaqa jonlana boshladi.

Tushunyapsizmi? Har jihatdan to'kin, hech nimadan kamchiligi yo'q bir hayot ichidamanu lekin u yo'q edi, uning yo'qligi mana shu to'kinlik lazzatini ketkizar, yurak o'sha aziz, qadrdon makonni qo'msayverardi.

O'sha ilonizi yo'llar, oralarida shamol o'ynagan qamishlar, bog'lar, daraxt shoxlariga tirmashgan bolakaylar..."⁵

To'rtinchi bobda qahramon sog'inchining yillar o'tsada hamon o'zgarmaganligi, qaytaga sog'inchning haddi a'losiga yetib, uni battar qiynayotganligi tasvirlangan. Endi qahramon xuddi alahsirayotgandek, qishlog'i esa unga tirikdek yaqinlari qiyofasida yuz ko'rsatayotgandek bo'lmoqda: "Bu orada, yeru osmon oralig'ida umr o'tgani sayin, u qurg'ur o'zining qadrini yana ko'rsatdi.

U goh otam, goh onam, goh sevgili dildor, goh do'st, goh qavmu qarindosh qiyofalariga kira boshladi. Ana shunaqa tovlanishlari bilan yil o'tgani sayin meni o'ziga maftun etib, chorlayverdi..."⁶

Beshinchi bobda qishloq qahramonga qarab so'zlanadi:

"Yo'llarimni oyoq ostingga to'shay, daraxtlarimni egay, shamolimu yomg'irim sog'inch qo'shiqlarini kuylasinlar desam, bag'rimda yo'qsan-ku?" deb chorlaydi meni.

"Seni bilganlarning ko'pi dunyodan o'tib ketishdi, ma'rakalarda ko'rinmading-ku" deb xafa bo'ladi.

Bir qarasam, sahar eshigimni qoqib kelibdi: yomg'ir ostida diydor turibdi. Kirmaysanmi uyga desam, bosh chayqaydi: "Yuraqol... seni olib ketgani keldim. Ammang o'tib qoldi..."⁷

So'ngi qismda sog'inch to'lgan qalb sog'intirganiga yoriladi, dil izhori qiladi, qahramon qishlog'iga dardlarini aytadi: "Modomiki, yaxshi kuningda quvna, qiyin kuningda yukingni

⁵ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-ona-yurt-hikoya>

⁶ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-ona-yurt-hikoya>

⁷ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-ona-yurt-hikoya>

ko'targan o'sha kishilar qatorida emas ekanman, bir kuni shamolingga aylanib ustingdan yelib o'tarman, munisim!

“O'g'ilginam shamol bo'lib keldi” deb suyunarsan, o'tloqlaringga qo'ngan shudring misoli ko'z yoshlaring aro.

Yomg'ir oldidan bir nafasga hamma yoq jimib qoladi. Bilaman, hozir ham shunday: qaqragan tandirlar, sarg'aya boshlagan ekinlar, turli-tuman mevaliyu mevasiz daraxtlar, o'tlar, qushlar... hammasi hayotbaxsh yomg'ir yog'saydi deb bir nafas jim qolishganday.

Ana shunda men ham yog'a boshlarman tuproqlaring uzra, bag'ringga tamomila singib ketish uchun!

Bir kuni shu qadrdon tuprog'ing uzra bir o't, bir maysa bo'lib unib chiqish uchun... azizim mening!”⁸

Asarda birorta dialog uchramaydi, lekin yozuvchi kompozitsiyani shunday tartiblaydiki, asar ikki sevishgan va sog'ingan dilning dialogiga aylanadi. Dastlab sog'inch tilga chiqmadi, sog'inguvchining dilidagilar ko'rsatildi, sog'intirguvchi ham sog'ingan edi, shu sabab oshig'ining holini ko'rib o'zi so'zladi, koyidi, hasrat qildi. Keyin oshiq ham tilga kirdi tuyg'ularini, qalb dardlarini to'kib soldi, sog'intirgani “azizim”, “munisim” deya erkaladi.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda hikoya mahorat bilan yozilgan, badiiy saviyasi ham yuqori darajada, yurtga sog'inch noan'anaviy usulda bayon etilgan. Asardagi hech bir detal ortiqcha emas, birini olib tashlasang yoki nimadir qo'shsang bunday ma'noga erisholmaydigandeksan kishi. Bularning barchasi adibning kompozitsiya yaratishda nechog'li mahoratli ekanidandir.

REFERENCES

1. Исажон Султон. Боқий дарбадар. Роман. Қисса. Ҳикоялар. –Т., 2011. -280 бет
2. Исажон Султон. Озод. Роман ва ҳикоялар. –Т., “Шарқ”, 2012. -432 бет.
3. Каримов Б. Руҳият алифбоси. –Т., Ғ.Ғулом НМИУ, 2018. -364 бет.
4. Nosirov A. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo'llanma. Samarqand – 2014.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Т.: Akademnashr, 2013. –406 b.

⁸ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-ona-yurt-hikoya>